

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Rajabova Munisa Aminboy qizi

Guliston Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Boshlang'ich ta'lim ulubiyoti yo'nalishi talabasi.

+99899133726. munisarajabova259@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12601058>

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'limda savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish juda muhim. Ushbu maqolada aynan shu mavzular o'z aksini topgan.

Ushbu maqolada bugungi davr ta'limini tubdan o'zgartirish qisman yoritilgan. Bunda qo'yilgan asosiy talab yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan

Kalit so'zlar: ta'lim, savodxonlik, integratsiya, jamiyat, metod, onlayn.

FORMING AND DEVELOPING THE WORLD VIEW OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract. Formation and development of literacy in primary education is very important. These topics are reflected in this article.

In this article, the radical change of education today is partially covered. The main requirement is to raise the scientific outlook and intellectual development of the young generation to a qualitatively new level, to teach them to adapt to the rapidly changing world. At the same time, it aims to introduce innovative forms and methods of education into the educational process

Key words: education, literacy, integration, society, method, online.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Формирование и развитие грамотности в начальном образовании имеет большое значение. Эти темы отражены в данной статье.

В данной статье частично освещено радикальное изменение образования сегодня.

Главное требование – поднять научное мировоззрение и интеллектуальное развитие молодого поколения на качественно новый уровень, научить его адаптироваться к быстро меняющемуся миру. При этом она направлена на внедрение в учебный процесс инновационных форм и методов обучения.

Ключевые слова: образование, грамотность, интеграция, общество, метод, онлайн.

Hozirgi kunda o'quvchilarni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, erkin fikrga ega, nutqi ravon, barkamol, komil inson etib tarbiyalash, o'quvchilarga har tomonlama bilim berishda o'qituvchi oldiga katta ma'suliyat yuklatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Farzandlarimizning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi, men bunga ishonaman" deb xalq

oldida yoshlarga nisbatan o'z ishonchinibildirib o'tdilar. Mana shunday buyuk mutafakkirlardek insonlarni voyaga yetkazishimiz uchun albatta, poydevorni mustahkamlashimiz kerak.

Mustahkam qurilgan poydevor ustida har qanday yuksalishlarga qo'rqmasdan intilishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ushbu yuksak maqsadlarga erishishlarida barcha shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Faqatgina bulardan to'g'ri, oqilona foydalana olsak bo'lgani. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borar ekan, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim davri bolalarning dunyoqarashi shakllanishining asosiy bosqichidir.

Bu davrda bolalarning atrof-muhit, jamiyat, va o'z-o'zlari haqida tushunchalari rivojlanadi.

To'g'ri yondashuv va samarali usullar orqali bu jarayonni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

1. Ta'limda Integratsiya Yondashuvi

Dunyoqarashni shakllantirish uchun turli fanlarni birlashtirgan holda ta'lim berish samarali bo'lishi mumkin. Tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlarni integratsiya qilish: O'quvchilarga tabiat va jamiyat haqida tushunchalarni birgalikda o'rgatish. Masalan, ekologiya darslarida tabiatni asrashning ijtimoiy ahamiyati haqida suhbatlashish. Ijodiy fanlar va texnologiyalar:

San'at va texnologiyalar orqali bolalarga zamonaviy dunyo haqida tushunchalar berish.

Masalan, rasm chizish yoki dasturlash darslarida ularga texnologiyalarning jamiyatdagi roli haqida ma'lumot berish.

2. Muammolarni Hal Qilish Ko'nikmalarini Rivojlantirish Bolalarning dunyoqarashini rivojlantirishda ularni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga o'rgatish muhim. Muammolarni tahlil qilish va hal qilish: O'quvchilarga turli vaziyatlarda qanday yo'l tutish kerakligini o'rgatish. Masalan, sinfda muhokama qilish yoki jamoaviy loyiha ishlari orqali.

Kritik fikrlashni rivojlantirish: Bolalarga ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashni o'rgatish. Bu ularning mustaqil va izchil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

3. Oila va Jamiyat Hamkorligi O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda oila va jamiyatning roli katta. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalar bilan birgalikda bolalarga ta'lim berish, ular bilan darslarni muhokama qilish va ma'lumot almashish. Jamiyatdagi faoliyatlar:

O'quvchilarni jamiyatdagi turli tadbirlarga jalb qilish, masalan, ekologik aksiyalar yoki xayriya tadbirlariga ishtirok ettirish orqali ularning jamiyatdagi rolini tushunishlariga yordam berish.

4. Adabiyot va San'atning Roli Adabiyot va san'at bolalarning estetik va madaniy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kitoblar va hikoyalar: Bolalarga turli millatlarning hikoyalari va kitoblarini o'qish orqali ularning madaniy dunyoqarashini kengaytirish. San'at va musiqa darslari: Bolalarga san'at va musiqani o'rgatish orqali ularning estetik didini va ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

5. Texnologiyalarni Qo'llash Zamonaviy texnologiyalar bolalarning dunyoqarashini kengaytirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Interaktiv ta'lim platformalari: Onlayn darslar, ta'limiy o'yinlar va boshqa interaktiv resurslardan foydalanish orqali bolalarning bilimlarini boyitish.

Axborot texnologiyalari: Bolalarga internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish va ularni global ma'lumotlarga kirishga rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir, chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladi. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek, "Ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Ilm-ma'rifat va yuksak ma'rifat kerak. Eng yaxshi meros bu yaxshi tarbiya. Ta'limda qilgan xatolarimizni to'g'rilash vaqti keldi". Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi davr pedagogi o'quvchilarni o'ziga moslashtirishi mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi. Chunki hozirgi birinchi sinf o'quvchisini misol qilib oladigan bo'lsak, ular kamida ikki tilda bemalol sanab bera oladi.

Hozirgi elektronika vositalaridan ba'zi pedagoglarga qaraganda anchagina yaxshi foydalana olishadi. Endi bunday yoshlarga majburlab o'qitishning mutlaqo iloji yo'q, biz ularga moslashga holda ta'lim-tarbiya berishimiz darkor. Milliy qadriyatlarimizni bajarishimiz kerak emas, nima uchun bu qadriyatni davom ettirishimiz kerakligini anglatishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ta'lim jarayonida integratsiya, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, oila va jamiyat hamkorligi, adabiyot va san'atning o'rni, hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu esa kelajakda ulardan ma'naviy boy va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

REFERENCES

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar ilmiy tadqiqot rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020y.
2. Qayumova, S. (2022). БЎЛАЖАК БОСШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВСЧИЛАРИНИ TIMSS ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ДАСТУРИ АСОСИДА МЕТОДИК

- ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЛТИМЕДИЯ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Science and innovation*, 1(B4), 159-162.
3. Shohsanam, K. (2023). THEORETICAL IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. *Science and innovation*, 2(Special Issue 3), 159-162.
 4. Kayumova, S. T. qizi, Sharipov, S. R., Abdullayev, K. A. ugli, & Nurmatov, I. S. (2023). THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING STUDENTS' READING PROFICIENCY BASED ON MODERN TRENDS. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(12), 57–61.
 5. To'liqin qizi Kayumova, S., Sharipov, S. R., ugli Abdullayev, K. A., & Nurmatov, I. S. (2023). THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING STUDENTS'READING PROFICIENCY BASED ON MODERN TRENDS. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(12), 57-61.
 6. Kayumova, S. T. K. (2022). DIFFERENCES BETWEEN PISA AND TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 753-757.
 7. Sh. Kayumova (2023). DIDACTIC PRINCIPLES FOR DEVELOPING NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Science and innovation*, 2 (B9), 57-60. doi: 10.5281/zenodo.8348958
 8. Sh. Kayumova (2023). DEVELOPMENT OF STUDENTS' READING LITERACY THROUGH TRIZ PEDAGOGY. *Science and innovation*, 2 (B10), 157-160. doi: 10.5281/zenodo.8433398
 9. Qayumova, S. (2022). БЎЛАЖАК БОСИЛАНҒИЧ СИՒФ ЎҚИТУВСЧИЛАРИНИ TIMSS ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ДАСТУРИ АСОСИДА МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЛТИМЕДИЯ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Science and innovation*, 1(B4), 159-162.
 10. Shahriddinova, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
 11. Shahriddinova, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
 12. Shahriddinova K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – Т. 19. – С. 183-187.
 13. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 09-14.
 14. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.

15. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.
16. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.
17. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
18. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
19. Mamatova , . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
20. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 40-44.
21. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>
22. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 5-8.
23. Sevara, K., & Maftuna, S. (2024, February). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIGA QO 'YILGAN ZAMONAVIY TALABLARNING XUSUSIYATI VA AHAMIYAT. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 65-67).
24. Sevara, K., & Mahliyo, X. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 68-70).
25. Karimova S., Habibullayeva S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING SAVODXONLIGINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA OSHIRISH //NEW RENASSAINCE CONFERENCE. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 229-234.
26. Karimova, S., & Habibullayeva, S. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI O 'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *NRJ*, 1(3), 830-835.

27. Karimova S., Habibullayeva S. THE SIGNIFICANCE AND ITS APPLICATION OF EXHIBITION IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1335-1339.